

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

KURONBOYEV DAVRON POLVON O'G'LI

**“OKSADIOZOL VA UNING HOSILALARI YORDAMIDA MIS (II) VA
KUMUSH (I) IONLARINI TABIIY VA TEXNOLOGIK OB'YEKTLAR
TARKIBIDAN ANIQLASHNING XRONOAMPEROMETRIK
USULLARINI ISHLAB CHIQISH”**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Kuronboyev Davron Polvon o‘g‘li

Oksadiazol va uning hosilalari yordamida mis (II) va kumush (I) ionlarini tabiiy va texnologik obyektlar tarkibidan aniqlashning xronoamperometrik usullarini ishlab chiqish..... 3

Куронбоев Даврон Полвон угли

Разработка хроноамперометрических методов определения ионов меди (II) и серебра (I) из состава природных и технологических объектов с использованием оксадиазола и его производных..... 21

Kuronboyev Davron Polvon o‘g‘li

Development of chronoamperometric methods for determining copper (II) and silver (I) ions from natural and technological objects using oxadiazole and its derivatives..... 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

KURONBOYEV DAVRON POLVON O'G'LI

**“OKSADIOZOL VA UNING HOSILALARI YORDAMIDA MIS (II) VA
KUMUSH (I) IONLARINI TABIIY VA TEXNOLOGIK OB'YEKTLAR
TARKIBIDAN ANIQLASHNING XRONOAMPEROMETRIK
USULLARINI ISHLAB CHIQISH”**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K686 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm ma'mun akademiyasi bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qutlimurotova Nigora Xakimovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Sultonov Marat Mirzayevich
kimyo fanlari doktori, professor.

Turobov Nurmuhammad Turobovich
kimyo fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli kengashning 2025-yil «26» 07 soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 306 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «12» 07 kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» 07 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A.Umbarov

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.A. Kasimov

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., professor

Z.Z.Yaxshiyeva

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda chiqindilarni qayta ishlab, ikkilamchi mahsulotlarga aylantirish, atrof muhitni chiqindilardan tozalash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda, Jumladan shlaklar, texnologik chiqindilar hamda oksidlangan mis rudalarini qayta ishlash va boyitish orqali oltin, kumush va mis kabi metallarni ajratib olish, iqtisodni rivojlantirish va ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish uchun mis va kumush metallarining mikromiqdorlarini chiqindilardan aniqlash hamda ajratib olish usullarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda mis va kumush ionlarini aniqlash va ajratib olishda, turli xil funksional guruh tutgan organik reagentlarni qo'llash orqali gibrid -ekstraksiya, sorbsion spektrofotometrik, lyuminescent, voltamperometrik, amperometrik, emission aniqlash usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunday usullarning sezgirlik, tanlab ta'sir etuvchanligini oshirishda tarkibida geteroatomlar saqlagan organik reagentlarni qo'llash zarurdir. Jumladan, yuqori aniqlikga, sezgirlikga, tezkorlikga va tanlab ta'sir etuvchanlikga ega bo'lgan elektrokimyoviy analiz usullarini ishlab chiqishda, oksidiazol va uning hosilalaridan foydalanib, mis hamda kumush metall ionlarini aniqlashning reaksiya mexanizmini, elektrokimyoviy parametrlarini (yarim to'lqin potentsiali, umumiy qarshilik, reaksiya tezligi elektrod jarayonlarini ishtirok etayotgan elektronlar sonini) aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish maqsadida texnogen ob'ektlar tarkibidan qimmatbaho metallarni qayta ishlash va ikkilamchi xom ashyoga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, ayniqsa, yangicha yondashuvlarga asoslangan, metall ionlariga yuqori selektiv usullar ishlab chiqish, ularning ilmiy asoslarini yaratish va ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahalliy xom ashyolar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo'yicha «Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlashda sanoat, ilm fan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, atrof-muhit obyektlari tarkibini nazorat qilishda iqtisodiy jihatdan samarali va selektiv, sezgir usullarni ishlab chiqish va metall ionlarini konsentrlash hamda ajratib olish uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi PQ-5159-son «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori, 2022 yil 16 fevraldagi PQ-131-son «O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2022 yil 2 martdagi PQ-144-son «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» dagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda mis(II) va kumush(I) ionlarini texnologik suvlar, rudalar va ishlab chiqarish korxonalari shlaklari hamda changlari tarkibidan aniqlashning ko'pgina fizik-kimyoviy usullari mavjud.

Mis(II) va kumush(I)ni ajratish–konsentrlashda suyuq va qattiq fazadagi ekstragentlar sifatida turli xil organik reagentlardan foydalanilgan. Dunyodagi yetakchi olimlar: S.L. Jackson, J. Spence, D.J. Janssen, A.R.S. Ross, X. Wang, Z. Zhao, H. Wang, F. Wang, va W. Dong, J. Environ Scilar tomonidan silikagellar, tabiiy seolitlar, sellyuloza nitrati, polikaproamidli gel membranalar, modifikatsiyalangan kremnezemlardan foydalanilgan holda mis(II) va kumush(I) ionlarini aniqlashga asoslangan elektro-, termokimyoviy va fluoressent usullari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizning yetakchi olimlari A.M. Gevorgyan, E. Abduraxmanov, Z.A. Smanova, R.X. Djiyanbayeva, B.D. Kabulov, M.A. Nasimov, I.P. Shesterova, N.T. Turabov, X.X. To'rayevlar mis va kumush ionlarini aniqlashning optik, elektrokimyoviy usullarni ishlab chiqish bilan shug'ullanganlar. Lekin hozirgacha mis(II) va kumush(I) ionlari yangi sintez qilingan oksadiozol hosilalari bilan aniqlash bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas. Mis(II) va kumush(I) ionlarini oksadiozol birikmalari yordamida aniqlash sezgirligini bir necha marta oshirishga imkon beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №FZ-2017092435 (2018-2020 yy.) «Xorazm viloyati sharoitida dorivor o'simliklarni o'stirish va ular asosida biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqish», mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Oksadiozol va uning hosilalari yordamida mis (II) va kumush (I) ionlarini tabiiy va texnologik obyektlar tarkibidan aniqlashning xronoamperometrik usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oksadiazol va uning hosilalarining elektrokimyoviy parametrlarini (yarim to'liqin potentsiallari, elektrod yuzasida o'zgarishlarini) aniqlash;

Mis va kumush ionlari oksadiozol va uning hosilalari bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlarini xronoamperometrik usulda aniqlash;

Mis va kumush ionlari bilan oksadiozol va uning hosilalarining kompleks hosil qilish mexanizmini, elektrodga ishtirok etayotgan elektronlar sonini, anod va katod diffuziya koeffitsiyentini, elektrokimyoviy impedens spektroskopiyasi, siklik voltamperometriya va xronoamperometrik usullarda aniqlash;

Mis va kumush ionlarini aniqlashning ishlab chiqilgan xronoamperometrik usulini aniqligini baholash;

Mis va kumush ioniga halaqit beruvchi ionlarni aniqlash va sun'iy aralashmalar analiziga qo'llash;

Ishlab chiqilgan usulni tabiiy va texnologik obyektlar analiziga qo'llash hamda usullarning raqobatbardoshligini baholash.

Tadqiqot obyekti. Mis(II) va kumush(I) ionlarining standart eritmaları, 5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion, 5-paraaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion, 2-benziltio 5-(4-aminofenil)-1,3,4-oksadiozol reagentlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Cu(II) va Ag (I) ionlari ionlari saqlagan texnologik eritmalar, shlamlar, rudalar, changlar, chiqindi suvlar, mis va kumush ionlarni kompleks hosil qilish jarayonini elektrokimyoviy usullarda aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. amperometrik titrlash, siklik voltamperometriya, xronoamperometriya, elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi, matematik statistika, IQ-spektroskopiya va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion – (HR₁), 5-paraaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion – (HR₂) 2-benziltio 5-(4-aminofenil)-1,3,4-oksadiozol (HR₃) reagentlari bilan mis (II) va kumush (I) ionini etil spirtli erituvchisida amperometrik titrlashning optimal kuchlanishi: Cu:HR₁ va Ag⁺:HR₁ — uchun — 0,65 va 0,9 volt, Cu:HR₂ va Ag⁺:HR₂ — uchun -0,5 va-0,3 volt, Cu:HR₃ va Ag⁺:HR₃ — uchun Cu²⁺-0,55 va 0.42 volt ekanligi aniqlangan.

HR₁ organik reagentining etil spirti eritmasidagi elektrooksidlanishi xronoamperometrik analiz usulida 0,6 volt kuchlanishda 10 sekunda borishi, mis ioni qo'shilgandan keyin reaksiyaning borishi 5 sekunda, kumush ioni uchun esa 1,2 voltda 7 sekunda borishi, bu esa dastlab mis va kumush ionlari organik reagent bilan kompleks hosil qilishini isbotlagan.

HR₁ organik reagentining oksidlanish – qaytarilish formal potentsiali siklik voltamperometrik analiz usulida 0,45 voltga tengligi, CuR₁ kompleksi uchun 0,6 voltga va AgR₁ uchun 0.55 voltga tengligi isbotlangan, formal potentsiallar qiymatlarining musbat sohaga siljiganligi mustahkam kompleks hosil qilganligi bilan asoslangan.

HR₁ organik reagentining mis va kumush bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining anod va katod diffuziya koeffitsiyentlari: ok-2.59*10⁻⁶:qayt-2,354*10⁻⁶ sm²/s ga Ag-ok-2.74*10⁻⁶:qayt-2,52*10⁻⁶ sm²/s ga tengligi aniqlangan hamda CuR₁ 1:2, AgR₁ 1:1 nisbatda C=S, N-H guruhlari orqali bog'langanligi aniqlangan;

Cu(II) va Ag(I) ionlarini aniqlashga halaqit beruvchi ionlar konsentratsiyalari topilib, ishlab chiqilgan usul bilan mis(II) ionini 1,12 mkg/l, kumush ionini 1,08 mkg/l gacha quyi aniqlash chegaralari topilgan va korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqinligi bilan usulning aniqligi yuqoriligi ko'rsatilgan;

Mis va kumush ionlarini xronoamperometrik aniqlash usulining to'g'riligi atom absorpsion analiz usuli bilan solishtirilgan hamda hisoblangan student koeffitsiyenti qiymatlarining erkinlik darajasi 2 uchun jadvalida keltirilgan tp - koeffitsiyentlar qiymatdan kichikligi bilan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion va organik reagentlar yordamida Cu(II) va Ag(I) ionlarini aniqlashga asoslangan ekspress, selektiv va sezgir xronoamperometrik titrlash uslublar ishlab chiqilgan va ular asosida texnologik suvlar tarkibida Cu(II) va Ag(I) ionlarini aniqlashga qo'llanilganda analitik va metrologik tavsiflari yuqori ekanligi aniqlangan;

ishlab chiqilgan Cu(II) va Ag(I) ionlarini aniqlashning elektrokimyoviy usullari Olmaliq kon metallurgiya kombinati texnogen obyektlar analiziga qo'llanilib, kobalt, temir, nikel, qo'rg'oshin, kadmiy, rux kabi metall ionlarining halaqit bermasligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. umumiy qabul qilingan standartlar asosida o'tkazilgan, qiyosiy tahlil, qo'shimchalar qo'shish, «kiritildi-topildi» usullari, hamda standart namunalar bilan taqqoslangan. Olingan natijalar matematik statistika usullari bilan qayta ishlab chiqilgan, elektrokimyoviy, induktiv bog'langan atom emission spektrometriya analiz usullari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mis(II) va kumush(I) ionlarini 5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion hosillari bilan elektrokimyoviy aniqlash usullarining optimal sharoitlari aniqlanganligi, ularni formal potensial qiymatlari, elektrokimyoviy jarayonda ishtirok etayotgan elektronlar soni aniqlanganligi, begona halaqit beradigan ionlarning ta'siri kamaytirilganligi, aniqlashning analitik va metrologik parametrlari yaxshilanganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mis(II) va kumush (I) ionlarini aniqlashning elektrokimyoviy usullarini tabiiy va sanoat obyektlari analizida qo'llanilishi analitik kimyoning muammolarini yechishga hizmat qilish bilan ifodalangan.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Texnogen obyektlardan Cu(II) va Ag(I) ionlarini oksadiazol hosilalari bilan aniqlashning xronoamperometrik aniqlash usuli bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Cu(II) va Ag(I) ionlarini oksadiazol hosilalari bilan xronoamperometrik aniqlash usuli «Muborak» gazni qayta ishlash zavodining «Markaziy analitik laboratoriyasi» amaliyotiga joriy qilingan. («Muborak gazni qayta ishlash zavodi» AJ ning 2023 yil 13 iyundagi 590/GK-11 sonli ma'lumotnomasi). Natijada gazni qazib olish jarayonidagi texnologik suvlar tarkibidagi kumush (I) va mis (II) ionlarini tanlab ta'sir etib aniqlash imkonini bergan.

Cu(II) va Ag(I) ionlarining amino va oksadiozol guruhi tutgan organik reagentlar yordamida elektrokimyoviy aniqlash usuli "Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ amaliyotiga joriy etilgan. ("Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ ning 2024 yil 20 noyabr 01563-son ma'lumotnomasi). Natijada Cu(II) va Ag(I) ionlarini texnologik suvlar tarkibidan 1,12 mkg/l, 1,08 mkg/l gacha aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan nashrlarida 4 ta, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi ko‘rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqotning obyekt va predmetlari belgilangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish ro‘yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Cu(II) va Ag(I) ionlarining organik reagentlar bilan ta’sirini elektrokimyoviy usullar yordamida o‘rganish (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida mis va kumushning texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishdagi ahamiyati, mis va kumush ionlarini aniqlashning fizik-kimyoviy usullari bo‘yicha mavjud ma’lumotlarning tahlili keltirilgan.

Turli obyektlarda organik reagentlar yordamida mis va kumush ionlarini aniqlash natijalari tizimlashtirildi. Qayd etildiki, 5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion – (HR₁), 5-paraaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion – (HR₂) 2-benziltio 5-(4-aminofenil)-1,3,4-oksadiozol (HR₃) organik reagentlaridan foydalanib, Cu (II) va Ag (I) ionlarini aniqlash uchun adabiyotlarda ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Cu(II) va Ag(I) ionlarini aniqlashda ishlatiladigan asboblar va reaktivlar hamda reagentlar eritmalarini tayyorlash usullari”** nomli ikkinchi bobida, kerakli asbob-uskunalar, elektrokimyoviy aniqlash usullari uslubi, jihozlar, Cu(II) va Ag(I) ionlarining hamda organik reagentlarning standart va ishchi eritmalarini tayyorlash, metall ionlarini aniqlash va olingan natijalarning aniqligini topishda qo‘llanilgan usullar keltirildi.

Dissertatsiyaning **“Mis (II) va kumush (I) ionlarini oksadiozol hosilalari yordamida xronoamperometrik aniqlashning optimal sharoitlarini aniqlash olingan natijalar va ularning muhokamasi”** nomli uchinchi bo‘limida reagentlarining kvant kimyoviy hisoblash natijalari shuningdek, mis (II) hamda kumush (I) ionlari bilan aniqlashning optimal sharoitlari tanlandi hamda reaksiya mexanizmi xronoamperometrik, siklik voltamperometrik, integratsiyal pulse amperometrik, elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi, IQ-spektroskopiyasi usullari orqali isbotlandi. Mis (II) va kumush (I) ionlari konsentratsiyasining analitik signalga ta’siri, begona ionlarning ta’siri va xronoamperometrik usulini sun’iy aralashma tarkibiga qo‘llash keltirildi.

Mis (II) va kumush (I) ionlarini HR₁ eritmasi bilan AT ga turli tabiatli fon elektrolitlar ta’siri o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar kumush (I)ioni uchun 1- (a) rasmda mis(II) ioni uchun esa 1-(b) rasmda ko‘rsatilgan.




1(a)-rasm. Ag(I) ionini HR₁ reagenti bilan AT ga turli tabiatli fon elektrolitlarining ta'siri. 1.kaliy tetraoksalat (pH-1,68), 2. natriy tartrat (pH-3,56), 3.kaliy fosfat (pH-6,86). 4.universal bufer (pH-4.01).




1(b)-rasm. Cu(II)ionini HR₁ reagenti bilan AT ga turli tabiatli fon elektrolitlarining ta'siri. 1.kaliy tetraoksalat (pH-1,68), 2.natriy tartrat (pH-3,56), 3.kaliy ftalat (pH-4.01), 4.universal bufer (pH-5,52).

1(a,b) -rasmdan mis (II) va kumush (I) ionlarini HR₁ reagenti eritmasi bilan AT da optimal fon elektrolit sifatida universal buferning pH 5,52 va 4,01 bo'lgan eritmaları tanlandi.

Mis (II) va kumush (I) ionlarini HR₁ eritmasi bilan AT ga kuchlanishning ta'siri o'rganildi. Bunda eritmaga konsentratsiyasi $1 \cdot 10^{-3}$ M li 18,2 mkg/l mis va 17,0 mkg/l kumush ionining standart eritmasidan va pH 5,52 va 4,01 dagi universal bufer eritmaları solindi va titrlash amalga oshirildi. Eritma hajmi - 50 ml, harorat $20 \pm 6^\circ\text{C}$. Har bir kuchlanish qiymati uchun titrlash kamida uch marta takrorlandi. Olingan natijalari 2 (a,b)–rasmlarda keltirildi.



2.(a)-rasm. Kumush (I) ionini HR₁ reagenti bilan AT ga kuchlanishning ta'siri, V: 1)0,15; 2) 0,40; 3)0,65; 4)0.90




2.(b)-rasm. Cu (II) ionini HR₁ reagenti bilan AT ga kuchlanishning ta'siri, V: 1)0,15; 2) 0,40; 3)0,65; 4)0.90

Mis(II) va kumush(I) ionlarini HR₁ eritmasi bilan titrlashda optimal kuchlanish 0,65 va 0,90 V ekanligi aniqlandi. Titrantning o'rtacha sarflanishi indikator elektrodlariga qo'llaniladigan kuchlanishga bog'liq emasligini ko'rsatadi.


0,1% li 19,3mkg/l HR₁ reagenti bilan mis (II) va kumush (I) ionlarini aniqlash imkoniyatini xronoamperometrik usul orqali o'rganildi, bunda metall ionlari va organik reagent orasida kompleks hosil bo'lish jarayonining vaqtga

bog‘liqligini aniqlanadi. Vaqtning kuchlanish (I , Volt) ga yoki elektrod sirtidagi tok kuchga (I , A/sm^2) bog‘liqlik egrilari orqali tahlil qilinadi. (3 (a,b)-rasmlar).



3-rasm. HR_1 reagentining xronoamperogrammalari: a) kuchlanishga va b) tok kuchining vaqtga bog‘liqligi.

Olingan xronoamperogrammalardan ko‘rinib turibdiki, HR_1 reagentining ishchi elektrod yuzasidagi qaytar elektrokimyoviy tasirlashishi 0,93 V (yoki $0,00026 A/sm^2$) da kuzatilgan. Kuchlanish o‘zgartirilganda esa juda qisqa vaqt ichida qaytarilish sodir bo‘lgan va kuchlanish yanda o‘zgartirilganda reagent molekulari 0,32 V kuchlanish (yoki $0,009-0,003 A/sm^2$ tok kuchi) da diffuziyani yengib, yana elektrod sirti bilan qaytar elektrokimyoviy tasirlashishini keltirilgan. Ushbu kuchlanish va tok kuchi qiymatlari HR_1 reagentining etil spirtidagi eritmasiga mis atsetat bilan hosil qilgan eritmasida o‘rganildi va olingan natijalar (4 (a,b)-rasm) da keltirildi.



4-rasm. $Cu(II)$ ionini HR_1 reagenti aniqlashning xronoamperogrammalari: a) kuchlanishning vaqtga bog‘liqligi; b) tok kuchining vaqtga bog‘liqlik xronoamperogrammalari.

HR_1 reagentining mis (II) ionini bilan hosil qilgan eritmasi uchun olingan xronoamperogrammalar dastlabki HR_1 reagenti xronoamperogrammalaridan kuchli farq qilishini, ya‘ni potensialning kuchli siljiganini ko‘rishimiz mumkin. Qaytariladigan jarayonda (diffuziya rejimida) vaqt o‘tishi bilan Faraday oqimining pasayishi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning elektrod sirtida


konsentratsiyasining o'zgarishi bilan bog'liq. Kottrell tenglamasi orqali diffuziya koeffitsiyenti hisoblandi va uning qiymati ok- $2.59 \cdot 10^{-6}$:qayt- $2,354 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^2/\text{s}$ ga tengligi aniqlandi. Potensialning 0,93 V dan 0,52 V gacha siljishi reagent va mis ionlari o'rtasida kompleks hosil bo'lishidan dalolat beradi. Kumush ionida esa diffuziya koeffitsiyentlari Ag-ok- $2.74 \cdot 10^{-6}$:qayt- $2,52 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^2/\text{s}$ ga teng bo'ldi. Bu ham kompleks hosil qilishini isbotlaydi.

Ushbu

$$i = \frac{nFAC\sqrt{D}}{\sqrt{t\pi}}$$

Kottrell tenglamasi orqali diffuziya koeffitsiyenti hisoblandi.

0,1% li 19,3 mkg/l HR₁ reagenti reagenti bilan Cu (II) va Ag(I) ionlarining kompleks hosil qilishini siklik voltamperometrik (SV) usulda o'rganildi. 18,2 mkg/ml mis (II) ioni bilan HR₁ reagenti aniqlashning optimal sharoitlarida, kompleks hosil qilishining formal potentsiali siklik voltamperometrik usulda elektrodga o'zgaruvchan kuchlanish berilib, maksimal kuchlanish qiymatidan Rendls-Shevchik formulasi orqali aniqlandi. Olingan natijalar 5-(a,b,c) rasmda keltirildi.



5-(a)rasm.

HR₁

reagentining skanerlash tezligi 50mv /sek dagi SV.

5-(b)rasm.

Skanerlash

tezligi 50mv/sek dagi Cu (II) ioni HR₁ reagenti bilan aniqlashning SV.

5-(c)rasm.

Skanerlash

tezligi 50mv/sek dagi Ag (I) ioni HR₁ reagenti bilan aniqlashning SV.

1 — jadval

Skanerlash tezligi 50 mv/sek dagi HR₁ reagenti bilan Cu (II) va Ag(I) ionlarini etil spirt muhitda SVusulda aniqlash natijalari

$E_{p, a} \text{ v}$	$E_{p, c} \text{ v}$	$E_p \cdot 10^3, \text{V}$	$E_{1/2}, \text{ v}$	$I_{p, a}, \text{ A}$	$I_{p, c}, \text{ A}$	elektronlar soni
0.318	0.355	$0.05 \cdot 10^3$	0.6	$9.3 \cdot 10^{-6}$	$9,4 \cdot 10^{-6}$	2
0.352	0.1045	$0.35 \cdot 10^3$	0.557	$8.2 \cdot 10^{-6}$	$1.2 \cdot 10^{-5}$	1

Cu (II) va Ag(I) ionlarini HR₁ reagenti bilan optimal sharoitlarda elektrodga skanerlash tezligi 50 mv/sek kuchlanish berilib, olingan siklik

voltamperogrammalari natijalaridan, Cu:R₁ kompleksining formal potentsiali 0,6 voltga tengligi, Ag:R₁ kompleksiniki esa 0,55 voltga tengligi isbotlandi va elektrod yuzasida ishtirok eta yotgan elektronlar soni mis (II)ioni uchun 2 ga hamda kumush (I) ioni uchun 1 ga tengligi aniqlandi.

HR₁ reagentining mis (II) va kumush (I) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining IQ — spektrlari tahlili qilindi. Olingan spektrlardan quyidagicha tahlil qilindi, 3200–3400 sm⁻¹ oralig‘idagi yutilish diapazoni N-H tebranishlarini, 1600–1700 sm⁻¹ tebranishlar C=S qo‘sh bog‘lanish tebranishlarini xarakterlaydi. 1450–1600 sm⁻¹ diapazonidagi cho‘qqilar aromatik halqadagi C=C tebranishlariga mos keladi. 1500–1600 sm⁻¹ sohadagi tebranishlar C=N uchun, 2800–3000 sm⁻¹ sohadagi tebranishlar esa aromatik va alkil guruhlardagi C–H tebranishlarga mos kelishi, shuningdek, amino guruh va sulfid guruhining mavjudligi strukturani tasdiqlashga imkon beruvchi xarakterli yutilishlardan bo‘lib, tahlil qilayotgan kompleksning tarkibidagi funksional guruhlariga mosligini ko‘rsatdi. Molekuladagi funksional guruhlardagi o‘zgarishlar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


HR₁ reagentining mis (II) va kumush (I) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining IQ — spektrlari natijalari

Reagent	ν_{as} (C=N)	ν_{sim} (C=N)	ν (S=C)	ν (N-H)	ν (C-H)	ν (Me-N)
HR	1600	1463	1179	3357	2993	-
AgR ₁	1691	1489	1165	3365	2980	470
Cu(R ₁) ₂	1600	1463	1133	3266	2993	414


HR₁ reagenti spektridagi deyarli barcha cho‘qqilar komplekslarda mavjud bo‘lib, faqatgina spektrning kichik to‘lqin uzunligi sohasida, ya’ni 410–470 sm⁻¹ sohada cho‘qqi paydo bo‘lgan. Ushbu sohada tebranish haqiqatdan ham mis va kumush uchun xarakterli ekanligi aniqlandi. S=C bog‘ida esa 14 va 44 sm⁻¹ sohaga siljishi, N-H 91 sm⁻¹, C=N sohada esa 26 sm⁻¹ sohaga siljiganligi mis va kumush ionlari bilan kompleks hosil qilganligini isbotlaydi. Reagent tarkibidagi NH guruhining, yani amin bilan mis (II) ionlari bilan ham bog‘lanishi orqali kompleksni mustahkamligi ortadi.

Olingan natijalar asosida komplekslarning taxminiy tuzilish formulalari keltirildi.

1 – sxema





2-sxema.



HR₁ reagenti bilan mis(II) va kumush (I) ionlarining kompleks birikmalarida formal potensial qiymati organik reagentda 0,45 Vga, misli kompleksda esa 0,6 V ga, kumushli kompleksda esa, 0,55 V ga tengligi, formal potensial qiymati oshishi kompleks birikmalarning mustahkamligidan dalolat beradi. Bu esa metall ion radiusi kamayishi bilan komplekslarning barqarorlik konstantasi oshish qonuniyatiga mos keladi.




Mis(II) va kumush(I) ionlarining HR₁ reagenti bilan kimyoviy reaksiyasining tabiatini Integral Pulse amperometrik usulda aniqlash amalga oshirildi. Bunda elektrodga integral ravishda o'zgaruvchan impuls berildi. Mis (II) ionlari uchun olingan natijalar 7 (a,b) va kumush (I) ionlari uchun 8(a,b,c) –rasmlarda keltirildi.



7(a)- rasm. HR₁ reagentining 0,6 – 1,2 V kuchlanishdagi IPAsi.

7(b)- rasm. HR₁ reagentining mis (II) ionlari bilan hosil qilgan kompleksining 0,6 – 1,2 va 2,0 V kuchlanishlardagi IPAsi.



7 (a)- rasmda HR₁ reagenti kuchlanish 0,6 volt berilganda 10 sekunddan keyin tok kuchi miqdori o'zgarib qoldi, bu reagentning elektroksidlanishi uchun yetarli ekanligini ko'rsatadi, 1,2 volt kuchlanishda ham 10 sekundda oshmagan, bu esa kompleks hosil qilish hisobiga kuchlanishning oshganligini ekvivalent nuqtadan keyin kompleks birikmaning oksidlanishini ko'rsatadi. 7 (b) — rasmdan HR₁ bilan mis (II) ionlari kompleksi hosil qilishi 5 sekund vaqtda 0,6 volt kuchlanishda amalga oshgan, grafikning 0.6 V potentsiali atrofidagi qismida oqimning tez o'zgarishi kuzatilgan. Bu oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining sodir bo'lishiga, ya'ni mis (II) ionlari bilan HR₁ reagentining kompleks hosil qilishi jarayonini ifodalaydi. Shu sababli, 0.6 V kuchlanishda kompleks hosil bo'ladi. 1,2 V kuchlanishda mis ionlarining qaytarilishi, 2,0 V kuchlanishda esa HR₁ reagentining oksidlanishi jarayonlar sodir bo'ladi.



8 (a) — rasm. HR₁ reagenti bilan kumush (I) ionining 0,6 V dagi IPAsi. **8(b)– rasm. HR₁ reagenti bilan kumush (I) ionining 1,2 V dagi IPAsi.** **8(c) – rasm. HR₁ reagenti bilan kumush (I) ionining 2,0 V dagi IPAsi.**

1.2 V kuchlanishda HR₁ reagenti va kumush (I) ionlari orasida to‘liq kompleks hosil bo‘lishi 7 sekunda sodir bo‘lishini isbotlaydi, undan katta vol‘tdagi impulsda kompleks oksidlanadi.

Elektrokimyoviy impedens spekroskopiya usulida elektrod yuzasidagi umumiy qarshilik aniqlanib, kompleks hosil qilishi bilan zaryadlarning o‘zgarishi va ionlarning harakatchanligi kamayishi aniqlandi. Olingan natijalar 9 (a,b) – rasmlarda keltirildi.



9(a)-rasm. Mis(II) ion bilan HR₁ reagentining kompleks hosil qilishining Nykvist egrilari.

9(b)-rasm. Kumush(I) ion bilan HR₁ reagentining kompleks hosil qilishining Nykvist egrilari

50 ml yacheykaga 0,1%li 1,0 ml HR₁ reagentidan qo‘shildi va tanlangan optimal sharoitlarda eritmaga uchta elektrod tushirilib, eritmaning umumiy qarshiligi o‘lchandi. Keyin 10,0 mkg/ml Cu(II) ionining standart eritmasidan 1,0 ml va 0,1%li HR₁ reagentidan, tanlangan optimal sharoitlar qo‘shildi, eritmaga

uchta elektrod tushirilib, eritma aralashtirildi, aralashtirish to'xtatilgandan keyin eritma qarshiliklari o'lchandi. Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, mis (II) ioni tutgan eritmaning qarshiligi yuqori $107.56 \Omega/\text{sm}^2$, Ag(I) ioni tutgan eritmaniki $108.08 \Omega/\text{sm}^2$ ga teng bo'lgan, HR reagentiniki esa $88,12 \Omega/\text{sm}^2$ ga teng bo'lgan, bu esa uning kuchsiz elektrolit ekanligini isbotlaydi, $\text{Cu}(\text{R}_1)_2$ kompleksniki esa $61 \Omega/\text{sm}^2$ ga tengligi, AgR_1 niki esa $51 \Omega/\text{sm}^2$ ga tengligi reaksiya natijasida ajralgan proton hisobiga eritma qarshiligi kamayganligini, elektro'tkazuvchanlik oshganligini isbotlaydi, ammo misli kompleks birikmaning qarshiligi yuqoriligiga sabab, kompleks birikmaning 1:2 nisbatda bo'lishi hisobiga harakatchanligi kamayganligidan, qarshilikning kattaroq ekanligini isbotlaydi.

Ishlab chiqilgan xronoamperometrik usulda mis (II) va kumush(I) ionlarining konsentratsiyasining maksimal tok kuchiga bog'liqlik va usulning xatoligi aniqlandi.

Ishlab chiqilgan usulning to'g'riligini aniqlash uchun mis (II) va kumush(I) ionlari uchun HR_1 reagentining xronoamperometrik usulidan olingan xronoamperogramma qiymatlari asosida "kiritildi-topildi" usulidan xatoliklar topildi va korrelyatsiya koeffisienti hisoblandi. (3,4-jadvallar)

3-jadval

Mis (II) ionini HR_1 reagenti bilan aniqlashda xronoamperometrik usulining aniqligini baholash (n=3)

Kiritildi Cu ng ml ⁻¹	I, mkA	Topildi ng ml ⁻¹ $\bar{X} \pm \Delta X$	S	Sr
1.12	17.75	1.10±0,04	0,025	0,014
2.60	31.77	2.59±0,03	0.02	0,011
4.22	56.50	4.2±0,03	0,017	0,009
6.40	75.18	6.39±0,01	0,012	0,007
9,40	110.02	9,39±0,02	0,007	0,004

4-jadval

Kumush (I) ionini HR_1 reagenti bilan aniqlashda xronoamperometrik usulining aniqligini baholash (n=5)

Kiritildi Ag ng ml ⁻¹	I, mkA	Topildi ng ml ⁻¹ $\bar{X} \pm \Delta X$	S	Sr
1,08	11.5	1.07±0,022	0,020	0,009
2,16	22.67	2.15±0,018	0.016	0,007
4,20	44.50	4.19±0,02	0,013	0,0058
8.40	84.18	8.4±0,012	0,011	0,0049
10,40	90.20	10,39±0,02	0,005	0,002

3- jadval mis (II) ionining $1.12 \text{ mkg}/\text{ml}^{-1}$ – $9.4 \text{ mkg}/\text{ml}^{-1}$ gacha bo'lgan miqdorida analitik signalga bog'liqligida korrelyatsiya koeffitsiyenti $R=0,9948$ ga tengligi hisoblab topildi. 4- jadval kumush (I) ionining ham $1.08 \text{ mkg}/\text{ml}^{-1}$ – $10.40 \text{ mkg}/\text{ml}^{-1}$ gacha bo'lgan miqdoridan ham analitik signalga bog'liqligida

korrelyatsiya koeffitsiyenti $R=0,9976$ ga tengligi hisoblab topilgan bo'lib bu qiymatning 1 yaqinligi ishlab chiqilgan usulning to'g'riligidan darak beradi.

Mis (II) va kumush (I) ionlarini xronoamperometrik aniqlashga begona ionlarning ta'sirini aniqlash. Eritmaga Cu (II) va Ag(I) ionlarining standart eritmalaridan va begona ionlarning standart eritmalaridan solindi hamda optimallashtirilgan sharoitda HR1 reagenti bilan xronoamperometrik aniqlash amalga oshirildi. Analitik signalning o'zgarish qiymatidan xalaqit beruvchi miqdorlar topildi. Olingan natijalar "kiritildi-topildi" usuli yordamida 5-6-jadvallarda keltirildi.

5-jadval

Mis (II) ionini HR₁ reagenti bilan xronoamperometrik usulda aniqlashga begona kationlarning ta'siri

($C_{Cu} = 10,0\text{mkg}/50,0\text{ ml}$; $E_{1/2} = 0,65\text{V}$)

Begona kation; [x]	Kiritilgan [x] mkg ml ⁻¹	Cu ²⁺ /[x]	Topilgan Cu ²⁺ mkg/ ml ; ($\bar{x} \pm \Delta X$; P=0,95)	N	S	Sr
Nikel (II)	22,0	0,50	9,97 ±0,04	5	0,03	0,013
Rux (II)	27,0	0,41	9,94±0,07	5	0,06	0,027
Titan (II)	84,0	0,12	9,90 ±0,11	5	0,09	0,040
Vanadiy(III)	12,0	0,45	9,93 ±0,09	5	0,07	0,031
Temir (III)	28,0	0,32	9,85 ±0,17	5	0,14	0,062
Qo'rg'oshin (II)	46,0	0,19	9,83 ±0,18	5	0,14	0,062
Marganes (II)	52,0	0,18	9,86 ±0,19	5	0,15	0,067
Kadmiy (II)	23,0	0,40	9,71 ±0,33	5	0,27	0,12

6-jadval.

Kumush (I) ionini HR₁ reagenti bilan xronoamperometrik usulda aniqlashga begona kationlarning ta'siri

($C_{Ag} = 10,0\text{mkg}/50,0\text{ ml}$ n=5)

Begona kation, "X"	"X" kiritildi, mkg/ml	[X] [Ag]	Topilgan Ag(I), μg, (P=0,95; $\bar{x} \pm \Delta x$)	S	Sr
Nikel (II)	33.6	3.36	10,14±0,47	0,19	0,085
Rux (II)	20.9	2.09	10,09±0,64	0,26	0,11
Titan (II)	2.82	0,282	10,11±0,67	0,27	0,12
Vanadiy(III)	6.8	0,68	10,09±0,32	0,13	0,06
Temir (III)	20.06	2.06	10,11±1,59	0,64	0,28
Qo'rg'oshin(II)	4.8	0,48	10,09±0,67	0,27	0,12
Marganes (II)	5.07	0,507	10,14±0,53	0,21	0,094

Jadvalda 10 mkg /ml mis (II) ionini xronoamperometrik aniqlashda Cd (II),

Zn (II), Pb (II) ionlari 1:1 nisbatlarda xalaqit bermasligi aniqlandi. 10 mkg/ml kumush (I) ionini aniqlashga esa qo'rg'oshin (II), alyuminiy (III), rux (II) faqat 1:1,8 nisbatgacha xalaqit bermaydi. Simob (II) mis va kumush tarkibining molyar nisbatiga Cu:Hg =1:0,15, Ag:Hg =1:0,15 xalaqit qilmaydi.

Ishlab chiqilgan mis (II) va kumush (I) ionlarini xronoamperometrik aniqlash usulini sun'iy aralashma tarkibiga qo'llanildi. Mis va kumush ham tabiiy obyektlarda siyrak yer elementlari bilan uchraydi. Shu sabab, mis, kumush va siyrak yer elementlaridan tashkil topgan sun'iy aralashma tuzildi. Optimal sharoitlarda 10 mkg Cu²⁺ va Ag⁺ ionlariga nisbatan Pb²⁺ (0,5:1), Zn²⁺ (0,5:1), Fe³⁺(0,5:1), V³⁺(0,25:1), Ti²⁺(0,25:1) va Al³⁺(0.5:1) Ni²⁺ (0.25:1) massa nisbatli sun'iy aralashma tarkibidan aniqlandi.(7-jadval)

7-jadval

**Sun'iy aralashma tarkibidan mis (II) va kumush (I) ionini aniqlash
(C_{Cu²⁺};C_{Ag⁺}=10,0 mkg, n=5)**

Aralashma komponentlari, mkg	Topilgan mis miqdori X _i , mkg	X _{io'rt}	X _i -X _{io'rt}	(X _i -X _{io'rt}) ²	S	Sr	ΔX
Ni ²⁺ (2,5) Ti ³⁺ (2,5) Cu ²⁺ (10) Al ³⁺ (5,0) V ³⁺ (2,5) Zn ²⁺ (5,0) Fe ³⁺ (5,0) Pb ²⁺ (5,0)	10,07 10,09 10,06 10,01 10,09	10,08	-0,01 0,01 -0,02 -0,07 0,01	0,0001 0,0001 0,0004 0,0049 0,0001	0,01	0,005	0,012
Ni ²⁺ (2,5) Ti ³⁺ (2,5) Al ³⁺ (5,0) V ³⁺ (2,5) Zn ²⁺ (5,0) Fe ³⁺ (5,0) Pb ²⁺ (5,0) Ag ⁺ (10)	9,95 10,20 10,04 10,06 9,86	10,01	-0,06 0,19 0,03 0,05 -0,24	0,0036 0,0361 0,0009 0,0025 0,0576	0,05	0,023	0,011

Olingan natijalardan ko'rinadiki, ishlab chiqilgan usul bilan mis (II) ionini sun'iy aralashma tarkibidan xatolik 0,12 dan oshmagan, Ag(I) ionini uchun esa 0,011 dan oshmagan holda aniqlash mumkin. Bu esa ishlab chiqilgan usulni tabiiy obyektlar tarkibini aniqlashda qo'llash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqilgan mis (II) va kumush (I) ionlarini aniqlashning xronoamperometrik usullarini tabiiy obyektlar va sanoat materiallari analiziga qo'llash”** nomli to'rtinchi bo'limida Cu(II) va Ag(I) ionlarining HR₁ reagent eritmasi yordamida real tabiiy obyektlar va sanoat materiallarida xronoamperometrik aniqlash usullari keltirildi.

Ishlab chiqilgan usulni Olmaliq kon metallurgiya kombinati texnologik suvi analiziga qoʻllanildi. Bunda dastlab suv tarkibi atom absorbsion usulida analiz qilindi. Undan keyin xronoamperometrik analiz usulida aniqlash amalga oshirildi. Bunda naʼmunadan 1.0 ml alikvot qism olindi va ustiga 0,1 % li tartrat kislotadan 1,0 ml solindi, hamda 0.01 ml HR₁ va 50 ml gacha etil spirt solib, uchta elektrod tushirilib, elektrodga kuchlanish berildi va analitik signal oʻlchandi (8-9-jadvallar).

8-jadval

Texnologik eritma tarkibidan mis (II) ionini aniqlash natijalari (P=0,95, n=3)

Aralashma komponentlari , mkg	Qoʻllanilgan usul	Topilgan n mis(II) miqdori X _i , mkg	Xioʻrt	S	Sr	ΔX	TP	F
Ca (10,6), Fe (28), Pb (45), Ni (4,06) Cu(3,2) Cd (4,12), Mn (11,45), Zn (5,41),	xronoamperometrik	3,18 3.21 3,23	3,2	0,025	0,0145	0.04	2,43	6,37
	Atom absorbsion usul	3,2 3.19 3.21	3.2	0,01	0,0057	0,02		

P=0,95 ishonchlilik ehtimoli uchun F funksiya qiymatlari hisoblangan Fisher qiymati (F=6,37) va student koeffitsiyenti 2.43 dan kichikligi ($F_{hisob.} < F_{jadval}$), ishlab chiqilgan usulning aniqligini yuqori va sistematik xatolik yoʻqligini koʻrsatadi.

9-jadval

Texnologik eritma tarkibidan kumush (I) ionini aniqlash natijalari (P=0,95, n=3)

Aralashma komponentlari , mkg	Qoʻllanilgan usul	Topilgan kumush(I) miqdori X _i , mkg	Xioʻrt	S	Sr	ΔX	TP	F
Ca (10,6), Fe (28), Pb (45), Ni (4,06) Ag(3,2) Cd (4,12), Mn (11,45), Zn (5,41),	xronoamperometrik	2,16 2.18 2,17	2,17	0,01	0,0058	0,016	3,43	7,47
	Atom absorbsion usul	2,16 2.17 2.17	2,166	0,006	0,0035	0,009		

P=0,95 ishonchlilik ehtimoli uchun F funksiya qiymatlari hisoblangan Fisher qiymati (F=7,47) va student koeffitsiyenti 3.43 dan kichikligi ($F_{hisob.} < F_{jadval}$), ishlab chiqilgan usulning aniqligini yuqori va sistematik xatolik yoʻqligini koʻrsatadi. Bu esa usulning sezgirligi va tanlab taʼsir etuvchanligini isbotlaydi.

XULOSALAR

1. Mis (II) va kumush(I) ionlarini aniqlashda 5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion analitik reagent sifatida tavsiya etildi hamda kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlari sifatida: etil spirti erituvchisida universal bufer eritmasining Cu (II) ionini aniqlashda pH=4.2 -5,5; Ag (I) ionini uchun pH=3.5-4.2 taklif qilindi.

2. Cu (II) va Ag(I) ionlarining HR₁ organik reagent bilan hosil qilgan komplekslarining formal potentsiali Cu(R₁)₂ kompleksi uchun 0.6 v, AgR₁ kompleksi uchun 0.55 v voltga tengligi; metall va reagentning mol nisbatlari 1:2 va 1:1 ekanligi aniqlandi hamda bog' hosil bo'lishi C=S guruhining tebranish chastotasi $\Delta\nu(\text{Cu}(\text{R}_1)_2) = 14 \text{ sm}^{-1}$, $\Delta\nu(\text{AgR}_1) = 46 \text{ sm}^{-1}$ ga siljiganligi va Cu-N bog'i $\nu = 414 \text{ sm}^{-1}$ da, Ag-N bog'i $\nu = 470 \text{ sm}^{-1}$ sohada namoyon bo'lganligi bilan isbotlandi.

3. Mis va kumush ionlarining HR₁ reagenti bilan hosil qilgan komplekslarining diffuziya koeffitsiyenti qiymatlari Cu- ok- $2.59 \cdot 10^{-6}$:qayt- $2,354 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^2/\text{s}$ ga Ag-ok- $2.74 \cdot 10^{-6}$:qayt- $2,52 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^2/\text{s}$ ga tengligi aniqlandi va elektrodda ishtirok etayotgan elektronlar soni mis ionini aniqlashda 2 ta, kumush ionini aniqlashda 1 ta elektron ishtirok etishi isbotlandi.

4. Xronoamperometrik usulda HR₁ organik reagentning oksidlanishi 10 sekundga, metall ionlari qo'shilishi bilan reaksiyaning borishi 5 va 7 sekundda borishi dastlab elektrod yuzasida kompleks hosil qilish reaksiyasi borishini isbotlaydi.

5. Cu(II) va Ag(I) ionlarining quyi aniqlash chegaralari xronoamperometrik usulda 1,12 mkg/l va 1.08 mkg/l tashkil qildi, olingan natijalarning aniqligi 1 ga yaqin korrelyatsiya koeffitsiyenti bilan izohlandi.

6. 5-ortaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion 5-metaaminofenil-1,3,4-oksadiozol-2-tion, 5-(p-aminofenil)-1,3,4-oksadiozol-2-tion va 2-benziltio 5-(4-aminofenil)-1,3,4-oksadiozol organik reagentlari yordamida Cu(II) va Ag(I) ionlarini amperometrik aniqlashning yangi uslubi "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ va "Olmaliq kon metallurgiya kombinat" AJ larining analitik laboratoriyalarida sinovdan o'tdi va tarkibida Cu(II) va Ag(I) ionlari bo'lgan obyektlar analizida qo'llashga tavsiya etildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01
ПРИ
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ХОРЕЗМСКАЯ АКАДЕМИЯ МАЪМУНА

КУРОНБОВ ДАВРОН ПОЛВОН УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ХРОНОАМПЕРОМЕТРИЧЕСКИХ МЕТОДОВ
ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНОВ МЕДИ (II) И СЕРЕБРА (I) ИЗ СОСТАВА
ПРИРОДНЫХ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОКСАДИАЗОЛА И ЕГО ПРОИЗВОДНЫХ**

02.00.02-Аналитическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/K686

Диссертация выполнена в Хорезмской академии Маъмуна.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tersu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Кутлимуротова Нигора Хакимовна
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты

Султонов Марат Мирзаевич
доктор химических наук, профессор

Турабов Нурмухаммад Турабович
кандидат химических наук, профессор

Yetakchi tashkilot

Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится 26.07.2025 на заседании Научного совета DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 при Термезский государственном университете. (Адрес: 190111, г. Термез, ул. Баркамол авлод.Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирован за № 306). (Адрес: 190111, г. Термез, ул. Баркамол авлод.Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17).

Автореферат диссертации разослан «12» 07 2025 г.

(протокол рассылки № 1 от «12» 07 2025 г).



И.А.Умбаров
Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

Ш.А. Касимов
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор.

З.З. Яхшиева
Председатель разового Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Сегодня в мире ведется большая работа по переработке отходов, превращению их во вторичные продукты и очистке окружающей среды от отходов. Это включает в себя извлечение металлов, таких как золото, серебро и медь, путем переработки и обогащения шламов, технологических отходов и окисленных медных руд, что будет способствовать развитию экономики и улучшению окружающей среды. В связи с этим разработка методов обнаружения и извлечения следовых количеств металлов меди и серебра из отходов имеет большое практическое значение.

Во всем мире ведутся обширные научные исследования по разработке гибридных экстракционных, сорбционно-спектрофотометрических, люминесцентных, вольтамперометрических, амперометрических и эмиссионных методов обнаружения и разделения ионов меди и серебра с использованием органических реагентов с различными функциональными группами. Для повышения чувствительности и селективности таких методов необходимо использовать органические реагенты, содержащие гетероатомы. В частности, при разработке методов электрохимического анализа с высокой точностью, чувствительностью, быстрым действием и селективностью с использованием оксадиазола и его производных, изучение механизма реакции определения ионов металлов меди и серебра, электрохимических параметров (потенциал полуволны, полное сопротивление, скорость реакции числа электронов, участвующих в электродных процессах) имеет важное научное значение.

В целях развития химической промышленности в нашей стране особое внимание уделяется переработке техногенных объектов с извлечением драгоценных металлов и превращением их во вторичное сырьё. На основе реализованных программных мер в данном направлении достигнуты определённые результаты, особенно в разработке новых подходов, создании высокоселективных методов для определения ионов металлов, научном обосновании этих методов, а также в обеспечении внутреннего рынка отечественным сырьём, способным заменить импорт. В стратегии развития Нового Узбекистана определены задачи по «обеспечению сбалансированности и устойчивости национальной экономики через модернизацию промышленности, науки, производства, техническое и технологическое обновление, углубленную переработку местных сырьевых ресурсов и ускоренное развитие производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью». В этом отношении большое значение приобретает разработка экономически эффективных, селективных и чувствительных методов переработки техногенных отходов, контроля состава объектов окружающей среды, а также концентрирования и извлечения ионов металлов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 24 июня 2021 года №ПП-5159 «О дополнительных мерах по развитию горно-металлургической промышленности и смежных с ней отраслей», от 16 февраля 2022 года №ПП-131 «О мерах по образованию охраняемых природных территорий в системе Государственного комитета Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды» и от 2 марта 2022 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию внедрения водосберегающих технологий в сельском хозяйстве», а также других нормативных правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. В мире существует множество физических и химических методов определения ионов меди(II) и серебра(I) в технологических водах, рудах, шлаках и пыли промышленных предприятий.

В качестве жидкофазных и твердофазных экстрагентов при разделении и концентрировании меди(II) и серебра(I) использовались различные органические реагенты. Ведущими учеными мира: S.L. Jackson, J. Spence, D.J. Janssen, A.R.S. Ross, X. Wang, Z. Zhao, H. Wang, F. Wang, va W. Dong, J. Environ Scilar разработаны электрохимические, термодимические и флуоресцентные методы обнаружения ионов меди (II) и серебра(I) с использованием силикагелей, природных цеолитов, нитрата целлюлозы, мембран из поликапроамидного геля и модифицированных кремнеземов.

